

O‘ZBEKISTONDA XATTOTLIK SAN'ATI VA UNING BADIY XUSUSIYATLARI

Gulchehra Abrorova

O‘zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi katta ilmiy xodimi

Annotasiya (o‘zbekcha).

Mazkur maqolada arab yozuvining keng tarqalishi taraqqiyoti rivojiga munosib hissa qo‘shgan hattotlik san'atining Markaziy Osiyoda Islom dini sivilizasiyasining madaniy merosida o‘ziga xos o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kalligrafiya, kufiy, riqo, suls, nasx, muraqqa, kitobat, qog‘ozrez, hattot, lavvoh, muzahhib, musavvir, sahhof, shams, lavha, sarlavha, zarvaraq, xotima.

ИСКУССТВО КАЛЛИГРАФИИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕГО ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ

Гулчехра АБРОРОВА

Старший научный сотрудник Государственного музея истории прикладного искусства и ремесел Узбекистана

Аннотация: В этой статье обсуждается роль искусства каллиграфии в культурном наследии исламской религиозной цивилизации Центральной Азии, внесшего достойный вклад в развитие широкого распространения арабской письменности.

Ключевые слова: каллиграфия, кувфий, рико, сулс, насх, муракка, китобат, кофозрез, хаттот, лаввох, музаххиб, мусаввир, саххоф, шамс, лавха, сарлавха, зарварак, хотима.

THE ART OF CALLIGRAPHY IN UZBEKISTAN AND ITS ARTISTIC FEATURES

Gulchekhra ABROROVA

Senior Researcher of the State Museum of History applied arts and handicraft history of Uzbekistan

Annotation. This article discusses the role of the art of calligraphy in the cultural heritage of the Islamic religious civilization of Central Asia, which has made a worthy contribution to the development of widespread Arabic writing.

Key words: calligraphy, kufiya, riko, suls, naskh, Muraka, kitabbat, kagozrez, khattat, lavvah, muzakhib, illustrator, akif, shams, tablet, title, zarvarak, khotima.

Yurtimizning kuch-qudrati azal-azaldan umuminsoniy milliy qadriyatlarga, hunarmandchilik an'alariga sodiqligi bilan o'lchanib kelinadi. Halqimizning ming yillar davomida azaliy qadriyatlarimizni o'zida mujassam etib, ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan nafis xattotlik - amaliy san'atining barcha turlari qatorida alohida ahamiyat kasb etadi.

IX-X asrlarda yurtimizda islom madaniyatining kirib kelishi tufayli buyumga odam tasvirini chizish yoki yasash man qilinganligi sababli va misdan ishlangan buyumlardagi tasvirlar, handasaviy naqshlar o'rnini bezak darajasidagi arab yozuvlariga boy o'simliksimon naqshlar bilan mazmunan kengayib borgan. O'tmishda musavvir va naqqoshlar tomonidan yaratilgan sharqona miniatyuraning noyob tizimida tasvir va yozuvni nozik his qilish ijod asosini tashkil qilib, san'at asarini yassi sathda shakl va rang yagona birlik hosil qilingan ijod namunasi sifatida yuzaga kelgan. O'rta Osiyoning qadimgi davri san'ati va madaniyatini o'rganishda yurtimizda olib borilgan arxeologik topilmalar orasida jang, ov va mehnat qurollari, sopol, bronza, oltin, kumushdan ishlangan turli dekorativ amaliy san'at namunalari bunga yaqqol isbot bo'ladi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, kitobat san'ati vujudga kelgunga qadar insonlar bir-birlari bilan she'rlar vositasida muloqotni amalga oshirganlar. Qadimda ajdodlarimiz Navro'z bayramlarida eng yaxshi xattotlarga hikmatli so'zlarni, she'riy matnni, ezgu tilaklarni bir parcha qog'ozga yozdirib, ularni bir-birlariga sovg'a tarzida taqdim qilganlar. Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobida ta'kidlanishicha, "xunuk xat bilan yozilgan matn kishining ko'ziga katta zarar yetkazar ekan". Shu bois go'zal husnixat bilan yozilgan asarlar nihoyatda e'zozlangan hamda tabarruk sanalgan. O'sha davrning mashhur xattotlari xatlarning chiroyli va jozibador bo'lishi uchun arab harflarining har biriga husn kiritishga va ularni go'zallashtirishga harakat qilganlar.

Markaziy Osiyoga islom madaniyatining keng tarqalishi tufayli o'zbek halq amaliy san'atida buyumlarga odam tasvirini chizish yoki yasash ta'qiqlanganidan so'ng buyumlardagi tasvirlar o'rnini bezak darajasidagi arab yozuvining "kufiy" va "nasx" husnixatiga oid naqshli bezaklar o'rin egallagan. Arab yozuvining dunyodagi boshqa halqlar yozuvidan farqli jihati shundaki, bu yozuvning go'zalligiga alohida e'tibor berish natijasida kishilarga yuksak estetik zavq beruvchi san'at asariga aylangan. Bu san'at azaldan sharqda "husnixat", "xattotlik", g'arbda esa "kalligrafiya" nomi bilan keng shuhrat qozongan. Husnixat san'ati dastlab Movarounnahr poytaxti Hirotda rivojlanib, u yerda Sulton Ali Mashhadiy boshliq yirik xattotlik maktabi tashkil topdi. Maktabning o'ziga xos tomoni XIV asrda Mir Ali Tabriziy yaratgan "nasta'liq" xat uslubi bu yerda Sulton Ali tomonidan takomillashtirildi. Bu xat yirik va mayda "nasta'liq" xati kitobat ishlarida keng qo'llanib, badiiy va tarixiy asarlar faqat

“nasta'liq” xati uslubida ko‘chirila boshladi. Kufiy, riqo, suls va nasx xatlari esa ko‘proq me'morchilik, naqqoshlik san'ati va Sharq qadimgi yozuvlarini o‘rganishda ishlatilgan.

1. Suls xati - bu xatning to‘rt bahrasi tekis, ikki bahrasi yumaloq shaklda yoziladi.

2. Nasx xati - bu xatning ixtirochisi mashhur xattot Ibn Muqla' hisoblanadi.

Bu xat yuzaga chiqib, shuhrat qozongandan keyin boshqa xatlarning barchasi mansux, ya'ni ishlatishdan qoldirildi. Ilmiy adabiyot va qo‘lyozmalarda ko‘p uchraydigan g‘ubor xati nasx xatining mayda qalamda yozilishidir. Matnlar raqamlarga o‘xshab juda mayda qilib yozilgani uchun “g‘ubor” deb aytilgan. G‘ubor xatining ixtirochisi - Said Qosim.

3. Muhaqqaq xati - bir bo‘lak qismi tekis bolib, qolgan bo‘laklari yumaloq shaklida yoziladi. Shuning uchun bu xatning “ma‘qaliy” va “kufiy” xatlariga o‘xshashligi boshqa xatlarga nisbatan ko‘prokdir. Shu sababdan Ibn Muqla bu xatga “muhaqqaq” deb nom berdi.

4. Rayhoni xati - ko‘fiydan kelib chiqqan. Bu nom xatning yozilishi shakl jihatidan rayhon guliga o‘xshashligida. Ko‘fiy va rayhoni xatlarning ixtirochisi Ibn Bavvob bo‘lgan.

5. Tavqe xati - yarim tekis, yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan. Tavqe deyilishiga sabab shuki, ilgari qozilar qozixona hujjatlarining boshiga yoziladigan so‘zlarni shu xat bilan yozganlar. Qozilar va hokimlar hujjatlarni shu tavqe xati bilan imzolardilar. Idora va mahkamalarda farmonlarga, maktublarga, qo‘lyozmalarga tavqe uslubida imzo qo‘yilgan.

6. Riyo xati - ko‘pchilik harflar bir-biriga qurama qilib yoziladi. Riyo xati - ko‘pincha maktublar, kishilarga yuboriladigan xatlar shu husnaxat bilan yozilgan. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan xatlarning har biri o‘z o‘rnida qo‘llanilib kelingan. “Muhaqqaq” xatidan qasida va she‘rlar yozishda, “suls”-ilmiy asarlar va xat yo‘l-yo‘riqlarida, “rayhoni” va “nasx”-qissa va xabarlarda, “tavqe” buyruq va farmonlarda, “riyo xati” maktublarda ishlatilgan. Undan tashqari, bu asosiy usulning har biri ingichka va yo‘g‘on qalamlarda yozilishi natijasida yana o‘n ikki xil xatni tashkil qilgan. XIV asrda temuriylar hukmronligi davrida o‘zbek halq amaliy san'atining an'anaviy me'morchiligida ushbu xattotlik uslubidan asosan bino shiftlarini, jimjimador saroy ustunlarini, masjidlar, maktablar, boylarning uylari, yog‘ochdan yasalgan buyumlarni bezashda qo‘llanilgan Sohibqiron Amir Temur boshqa davlatga harbiy yurishlari vaqtida chet ellardagi hunarmand ustalarni Samarqandga olib keltirgan.

Sohibqiron Amir Temur asos solgan saltanat eng yirik va qudratli davlat bo‘lganligi jahonga ma'lum. U o‘z vorislariga nafaqat qudratli davlatni, shuningdek, saltanat qurish va davlatni boshqarish qonun-qoidalari bayon etilgan mashxur tuzuklarni qoldirgan edi. Uning vafotidan so‘ng taxt, hokimiyat ilinjida avj olgan

o‘zaro ichki kurash, jangu-jadallar davlatni zaiflashtirib, mamlakatni inqirozga va parokandalikka olib keldi. Natijada, XVI asr boshlarida Temuriylar saltanati zaiflashib Buxoro, Qo‘qon hamda Xiva xonliklariga bo‘linib keldi. XIX asrga oid zargarlik san‘ati haqida so‘z yuritishdan avval, xonliklarni tashkil topish jarayonlariga to‘xtalib o‘tish joiz. Sababi, amaliy san‘atdagi o‘zgarishlar ham shunga muvofiq tarzda o‘zgarib, har bir xonlik o‘ziga xos yo‘nalishni targ‘ib qila boshladi. Jumladan, hunarmandlarning yangiliklar yaratishga bo‘lgan intilish orqasida Mavoraunnahr sarhadlarini xonliklarga bo‘linishi turadi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu esa o‘z navbatida raqobatbardosh amaliy san‘at asarlarini yaratilishiga ham sabab bo‘ldi. Xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro siyosi-iqtisodiy, san‘at va madaniyat sohalaridagi o‘zaro sog‘lom raqobat jarayonlari xattotlik san‘atiga ham o‘zining ta‘sirini o‘tkazdi. Endilikda xattotlar xon saroylaridagi ustaxonalarda faoliyat yuritib, o‘ziga xos yo‘nalishlarni, bezaklarni, naqshlarni, zeb-ziynat buyumlarining yangi turlarini yaratish uchun yanada ko‘proq o‘z ustilarida izlanishlar olib bordilar.. Temuriylar davri (1370-1506 yillar)dan boshlab turkiy-o‘zbek tilida kitoblar yaratilishiga alohida e‘tibor berilgan. Buning natijasida esa, kitobat va xattotlik san‘atida yurtimizda yirik maktablar va markazlar shakllanishi ko‘rga ko‘rina boshlangan.

Temuriylarning hukmronligi davrida qo‘lyozma kitoblarning qayta ko‘chirilishi natijasida ko‘plab tasviriy san‘at namunalari yuzaga keldi va ular kitobat san‘atini boyitdi. Bu davrda yaratilgan badiiy miniatyuralarning asosiy qismi “muraqqa” uslubida badiiy miniatyura asarlari jamlanib, unda asosan shoir, olim, podshoh, saroy amaldorlari, hayotiy voqealari tasvirlangan. Ushbu uslubning o‘ziga xosligi shundaki, jamlanmaga ishlangan miniatyura mustaqil, ijodiy tasviriy san‘at asari hisoblanib, unda kotibning hattotlik va musavvirlik mahorati ko‘zga tashlangan. XIV asrda temuriylar saltanati inqirozga yuz tutgandan keyin, siyosiy hukmronlik Shayboniylar qo‘liga o‘tishi bilan madaniy hayot ma‘lum darajada Buxoroda taraqqiy etdi. Bir qism hirotlik xattot, rassom va madaniyat arboblari Buxoroda to‘plandi. U yerda Buxoroga xos bo‘lgan yangicha kitobat va husnixat maktabi vujudga keldi. XVI—XVII asrlarda yashab ijod etgan Buxoro xattotlari husnixatda o‘zlariga xos Buxoro xattotlik maktabini yaratdilar. Buxoroda madaniy hayot ma‘lum darajada taraqqiyot pillapoyasiga ko‘tarilayotgan bir vaqtda, Hirot xattotlari va musavvirlaridan bir qismi Buxoroga keladi. Buxoroning o‘ziga xos bo‘lga yangicha kitobat va husnixat san‘ati rivoj topadi. Tarix sahifalarida Mir Ali Hiraviy Fatxobodiy, Mirza Ismatulloh Munshiy, Sodiq Munshiy Jondoriy, Mir Ma‘sum Buxoriy, Avaz Badaliy Buxoriy, Hoji Yodgor, Domlo Bobobek, Abdulmajid Maxdum Buxoriy, Subxonquli, Muhammad Rizo Namadiy, Mirzo Mavlon Buxoriy, Abdulloh Savdo, Abdulvahhobxo‘ja, Abdulqodirxo‘ja, Mirzo Muhammadjon, Mirzo Ishaq kabi buyuk xattotlarning nomlari tez-tez uchrab turishi buning yorqin dalilidir. O‘sha davrda Buxoroda kufiy, suls, g‘ubor, nasx, nastaliq xatlari juda rivojlangan. XX asr boshlarida qo‘qonlik kandakor

ustalarning Buxoro kandakorligi an'analari ta'sirida “kufiy”, “nasx” yozuvlarida chekib ishlangan g'azal baytlari bilan mis buyumlarni bezashga e'tibor berila boshlandi.



XX asr boshidagi Buxoro mis kandakorligi namunalarida “kufiy” xusnixat yozuvli naqshlaridan ilhomlangan qo‘qonlik hunarmand usta Ali Nazar mis buyumlarini “kufiy” uslubdagi naqsh bezaklari bilan boyitgan. Xususan, O‘zbekiston amaliy san'ati va hunarmandchiligi tarixi davlat muzeyi ekspozitsiyasi namoyishiga qo‘yilgan usta Ali Nazar ijodiga mansub “Misko‘za” – gumbazsimon qopqoqdan iborat bo‘lib, qorin qismida katta hajmda ishlov berilgan husnixat yozuvli bezaklari bilan ajralib turadi. 1919 yilda qizil misdan tayyorlangan ko‘zani naqsh bilan bezashda buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiyning ijodiga mansub g‘azal baytini

“kufiy” uslubida bezab ishlagan. Lagan, patnislar, baland va yuqoriga qarab yo‘naltirilgan qizil misko‘zalar, misqozon, shamdonlar singari mis buyumlarida aks etgan rang-barang tarixiy obidalar, naqshinkor xusnixat yozuvlarini ko‘rgan har bir inson misgarlik san'atini rang-barangligini his etishi, undan bahra olishi shubhasizdir. Yuksak did bilan ishlangan mis buyumlarida bezak qismlarining aniqliligi, naqshlarning badiiy joylashishi, shakl va mazmunining birligi bilan bilan o‘zbek misgarlari ishini jahonga tanitib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston hunarmandchiligi va amaliy san'ati. 1-tom. Toshkent 2016 yil.
2. Bulatov S. “O‘zbek xalq amaliy bezak san'ati”. Toshkent, 1991 yil.
3. [www.qomus.info/enciklopedia/cat-k/kufiy-uz/>k xapfi>KUFII](http://www.qomus.info/enciklopedia/cat-k/kufiy-uz/>k%20xapfi%20KUFII)
4. www.uz.denemetr.com/doks/768 O‘zbek halq amaliy san'ati, uning tarixi. O‘zbek halq amaliy san'ati.
3. Abdullaev T., Faxretdinova D., Xakimov A. “Pesn' v metalle”. Toshkent, 1986 yil.
4. Bulatov S. “O‘zbek xalq amaliy bezak san'ati”. Toshkent, 1991 yil